

INNOVATSION RAQAMLI IQTISODIYOTNING MAMLAKATIMIZDA SHAKLLANISH VA RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI

Sotvoldiyeva Xurliqo G'ayratjon qizi

Andijon davlat texnika instituti magistranti

Ilmiy rahbar: Andijon davlat texnika instituti i.f.n., dots. B.Abdullayev

Mamlakatlardagi raqobatchilik muhitining kuchayishi munosabati bilan Internet xizmatlari operatorlari va provayderlari soni muttasil ko'payib bormoqda, ularni quyidagi jadval ma'lumotlaridn ko'rish mumkin.

1 - jadval

Innovatsion raqamli iqtisodiyotning shakllanish va rivojlanish ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	O'zbekiston	MDH	Jahonda	XXP
Stasionar telefon aloqasi (har 100 kishida)	11,3	20,7	13,6	14,7
Mobil aloqa (har 100 kishida)	77,3	141,2	101,5	96,9
Faolmobiltarmoqaloqasi ((har 100 kishida)	55,9	59,7	52,2	69,1
3 G doirasi (umumiyaloqaganisbati)	45,3	77,1	85	98
LTE/WiMAXdoirasi ((umumiyaloqaganisbati)	16,9	45,9	66,5	97
Mobil aloqa narxi (YaMD nisbati)	2,3	1,7	5,2	0,6
Mobil tarmoqnarxi 500MB (YaMD nisbati)	3,3	1,4	3,7	0,7
Mobil tarmoqnarxi 1G (YaMD nisbati)	16,7	3,1	6,8	1,1
Komp'yutermavjudbo'lganxo'jaliklar soni (har 100 xo'jalikdan)	43,9	67,4	46,6	52,5
Internetgaulanganxo'jaliklarfoizi,%	75,4	68	51,5	55,5
Internetdan foydalanuchilar foizi,%	46,8	65,1	45,9	53,2
Foydalanuvchi uchun internet tarmoq tezligi (kbit/s)	5,7	59	74,5	14,7

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, respublikamizda axborot kommunikasiya texnologiyalari va internet tizimini rivojlantirishga berilgan katta e'tibor tufayli soha tez rivojlanmoqda. Ammo internet tarmog'ining tezligi, mobil aloqa va mobil tarmog'i narxi, mobil aloqa mavjudligi bo'yicha jahonda va mustaqil davlatlar hamdustligida orqada bormoqda.Provayderlar va operatorlarning asosiy qismi Toshkentda jamlangan bo'lishiga qaramay, respublika hududlarida, ayniqsa,

Samarqand va Buxoro viloyatlarida ularning soni muttasil oshib borishi kuzatilmoqda. Bu esa bozorning ushbu segmentida raqobatning kuchayib borayotgani dalolat bermoqda. Kanallarning o'tkazuvchanlik layoqati ko'payishi va operatorlar hamda provayderlar soni ortishi barobarida, Internet tarmog'iga kommunikasiyalangan va keng taromqli foydalanish tizimi abonentlari jadal sur'atlar bilan oshib bormoqda [1].

Mamlakatda Internet tarmog'idan jamoaviy foydalanish shahobchalari soni ortib bormoqda (JFSh). Bunga ushbu shahobchalar faoliyatini lisenziyalash jarayonining soddalashtirilishi yordam bermoqda. Internet tarmog'ida ulanish uchun Wi-Fi texnologiyasidan foydalanish ham kengaymoqda. Tajriba tariqasida foydalanish natijalariga ko'ra, Davlat radiochastotalar komissiyasi tomonidan respublikada WiMAX texnologiyasi bo'yicha keng taromqli simsiz foydalanish tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida har bir opretorga chastotalar taromqli ajratib berilgan edi. Bu katta hududlarni qamrab olish bilan birga simsiz tarmoqlarni yaratish imkonini beradi (50 kilometrgacha). Bunda ma'lumotlarni uzatish tezligi 32 dan 135 Mbit/s gachani tashkil etadi. Shu bilan birga Wi-Fi texnologiyasi bo'yicha simsiz foydalanish tarmoqlarini rivojlantirish uchun chastotalar ajratib berilgan. Ular simsiz lokal (ofis ichidagi) tarmoqlarni yaratishga va Internet tarmog'iga ma'lumotlarni uzatish tezligi 54 Mbit/s bo'lgan yuqori tezlikka ega simsiz ulanishlarni vujudga keltirishga mo'ljallangan.

Wi-Fi texnologiyasidan foydalanilgan holda Internet tarmog'iga ulanish hududi kengaytirilmoqda. Natijada Wi-Fi foydalanish nuqtalari soni ortadi.

O'zbekistonda aloqa va kommunikasiya sohasi 2017 yil yanvar-dekabrda aloqa xizmatlari hajmi 7215,7 mlrd. so'mni tashkil etdi yoki 2016 yil yanvar-dekabrda taqqoslanganda (amaldagi narxlarda) 26,9 % ga o'sdi. Mobil aloqa xizmatlari (internetni qo'shgan holda) jami aloqa xizmatlari hajmida 68,9 % ni tashkil etdi va 4971,2 mlrd. so'mga, shu jumladan aholiga ko'rsatilgani 4405,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Aloqa xizmatlari tarkibi 2016 yil yanvar-dekabrda nisbatan mobil aloqa xizmatlari 24,6 % ga, shu jumladan aholiga ko'rsatilgani - 24,5 % ga o'sdi [2].

2018-yil 1 yanvar holatiga mobil aloqa bilan ta'minlangan abonentlar soni 22504,5 ming. abonentni, shu jumladan aholida 21940,9 ming. abonentni tashkil etdi. Aholini mobil aloqa bilan ta'minlanganligi har 100 kishi hisobiga 68 birlikni tashkil etdi. 2018 yil 1 yanvar holatiga Internet tarmog'iga ulanish xizmatlarini ko'rsatish uchun ruxsatnomaga ega xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soni 618 birlikni, jamoaviy ulanish punktlarining jami soni esa 445 birlikni tashkil etdi. xalqaro axborot uzatish kanallarining o'tkazish qobiliyati 104,1 Gbit/s ni tashkil etdi [3]. Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda interaktiv o'qitish usullarini joriy qilish hamda oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar (oliy o'quv yurtlariga qo'shimcha ravishda shartnoma asosida qabul

qilish, sirtqi o'qish kurslarini joriy etish) hisobot davrida ta'lim sohasidagi xizmatlarning o'sishiga (120,6 %) ta'sir ko'rsatdi. Davlat boshqaruvi, iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va xalqning kundalik hayotida axborot-kommunikasiya texnologiyalarini izchil joriy etish bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmining (117,3 %) oshishiga olib keldi. Ayni paytda AKT sohasi mamlakat YaIM ning 2,2 foizini tashkil etadi [4].

Respublikamiz salohiyatini tahlil etish va makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni ekonometrik modellar orqali rivojlanish tendensiyalarini aniqlash va prognozlash natijasida shuni ta'kidlash zarurki Prezidentimiz ta'kidlagan 2030 yilga borib innovatsion raqamli iqtisodiyotning YaIM dagi ulushini 30 foizga etkazish tarmoqning yillik o'rtacha o'sish sur'atini 15 foizdan yuqori darajada rivojlantirish zarur bo'ladi [5]. Buning uchun respublikamizda ilmiy salohiyat, moddiy va nomoddiy resurslar etarli deyishimiz mumkin. Kelajakda innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga turtki berishga qodir innovatsiya institutlarini tashkil etish ko'zda tutilmoqda. Bunday institutlarni yirik va kichik biznesda turli davlat dasturlari, shuningdek, venchur jamg'armalar ifoda etadi. Davlat innovatsiya siyosatini samarali amalga oshirish uchun bu kabi institutlarni tashkil etishga qat'iy ehtiyoj bor. Shunday qilib, innovatsiyaning mohiyati va innovatsiyalarning mavjud tasniflari haqidagi qarashlarni tahlil qilish quyidagi xulosalar chiqarishga imkon beradi: zamonaviy iqtisodiy sharoitda innovatsiyalar innovatsiyalar natijasida triadaga ega - ilmiy-texnikaviy yangilik, sanoat. qo'llanilishi, tijorat maqsadga muvofiqligi, ilmiy-texnika taraqqiyotining asosidir, shuning uchun korxonalarining innovatsion faoliyati uning sur'atlarini ko'p jihatdan belgilaydi. Innovatsiya xususiyatlarining triadasidan aynan uni tijorat maqsadlarida amalga oshirish imkoniyati innovatsiya muvaffaqiyatidan dalolat beradi va uning samaradorligini belgilaydi. Innovatsion faoliyat natijalari texnologik (mahsulot, jarayon) va texnologik bo'lmagan (tashkiliy, marketing) innovatsiyalar bo'lib, ular bozorda tubdan yangi yoki takomillashtirilgan tovarlar, jarayonlar, xizmatlarning paydo bo'lishi yoki moliyaviy munosabatlardagi o'zgarishlarda ifodalanadi. va korxonaning iqtisodiy ko'rsatkichlari. Shu bilan birga, shuni ta'kidlash kerakki, korxonalarining xo'jalik yurituvchi sub'ektlar sifatidagi innovatsion faoliyati (moddiy ishlab chiqarish sohasidagi tadbirkorlik faoliyati) natijalari texnologik bo'lmagan innovatsiyalar bo'lgan uning organik tarkibiy qismidir, chunki ular ko'pincha korxonaning o'zida paydo bo'ladigan va katta investitsiyalarni talab qilmaydigan g'oyalar. Biroq, o'z mohiyatiga ko'ra, texnologik bo'lmagan innovatsiyalar faqat mavjud mahsulotlar va texnologiyalarning hayot aylanishini uzaytiradi. Shu nuqtai nazardan, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot sur'atlarini tezlashtirish uchun texnologik innovatsiyalarni muhimroq deb hisoblash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Паншин. Цифровая экономика: Особенности и тенденции развития. М. 2018.
2. Электронная экономика. М. 2017, авторский коллектив. Ўзбекистон Республикаси статистик ахборотномаси.2018.www.scu.uz
3. 2018 yil 27 apreldagi PQ-3682-son «Innovation g'oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliy joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori
4. G'ulomov S.S. va boshqalar. Iqtisodiy informatika. Toshkent, «O'zbekiston», 1999 yil.
5. G'oirova X., "Innovatsion faoliyatni boshqarish ko'rsatkichlarini hisoblash uchun dasturiy ta'minotni ishlab chiqishning asosiy yo'nalishi".TATUFF"Texnika va raqamli texnologiyalarning amaliyotda qo'llanilishi va ularning innovatsion yechimlari" xalqaro ilmiy-texnik konferensiya 2023-yil 4-5-may.